



2018 yilning yanvar – dekabr oylarida

QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari

hajmi -

1917,7 mlrd.so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi -

6,8 %

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar

ulushi -

47,1 %

Norasmiy sektor
ulushi -

46,1 %

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyatida jami 1917,7 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,5 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 130,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,8% hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 130,5 % ni

tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 47,1 %i yoki 904,1 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,9 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 46,1 % yoki 883,1 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,0 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat
tashkilotlari

- hajmi - **130,6 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **130,5 %**

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar


- hajmi - **904,0 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **107,9 %**

Norasmiy sektor

- hajmi - **883,1 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **99,0%**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlari hajmida 71,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 7,7 % punktga kamaygan.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 14,8 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,9 % punktga ko'paygan.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari jamiga nisbatan 13,7 % to'g'ri kelib, o'tgan yil davriga nisbatan 0,7 % punktga ko'paygan.



Yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqorolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqorolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 1.5 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 % punktga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 34,3 % (0,1 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 64,2 %ni (2,5 % punktga ko'payish) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 34,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 65,5 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,7 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,5 % punktga kamaydi va 1,3 %ni tashkil etdi. Qolgan 94,5 %i kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1.3 % punktga kamaydi.







Mulkchilik shakllari bo'yicha

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1786,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,9 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 foiz punktga ko'paydi.






Qurilish ishlari hajmi hududlar kesimida



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Namangan shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 56,0 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.





Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish surati Namangan shahrida kuzatildi.


Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Chortoq tumanida (129,6 mlrd.so'm yoki 132,7%) - Chortoq tumanida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda

maishiy hizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish ishlarini bajarilgan;


Pop tumanida (167,0,mlrd.so'm yoki 126,7%)- Pop hududida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Norin tumanida (95,0 mlrd.so'm yoki 117,2%)- Norin tumanida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;




Tumanlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so'm)

2018-yil 2017-yil



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 22,0 % ini tashkil etdi, Namangan tumanida 11,5 % ni, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 9,6 % ni, tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Mingbuloq tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo`rg`on tumanida 4,5 % ni, Norin tumanida ushbu ko`rsatkich 5,0 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.

